




2021- yil yanvar-avgust oylari uchun Namangan viloyatidagi qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Namangan viloyatida jami **3362,0** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **107,1 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2512** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **313** taga oshdi.



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		Jamiga nisbatan ulushi % 01.09.2021
	01.09.2020- yil	01.09.2021- yil	
Namangan viloyati	2199	2512	100,0
Namangan sh.	715	799	31,8
tumanlar:			
Mingbuloq	82	76	3,1
Kosonsoy	269	273	10,9
Namangan	124	141	5,6
Norin	106	133	5,2
Pop	82	112	4,5
To'raqo'rg'on	89	110	4,4
Uychi	201	241	9,6
Uchqo'rg'on	133	174	6,9
Chortoq	147	165	6,6
Chust	160	185	7,3
Yangiqo'rg'on	91	103	4,1




Ma'lumot uchun: Viloyatdagi soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Namangan shahri (31,8%), Kosonsoy tumani (10,9 %) va Uychi (9,6 %) tumanlarida, hamda eng kam ulushni Mingbuloq tumani (3,1 %), Yangiqo'rg'on tumani (4,1 %), Pop tumani (4,5 %), To'raqo'rg'on (4,4 %) tumanlarida qayd etildi.



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 120,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 183,3 mlrd. so'mga kamaygan bo'lib, 2020- yilning mos davriga 36,4 % ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Namanagan shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **62,2 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2021- yil yanvar-avgust
- 2020- yil yanvar-avgust

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-avgust oylida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **66,0 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-avgust oyi ko'rsatkichiga nisbatan **4,1 %** punktga ortdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **114,1 %** ni tashkil etgan holda **2220,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **30,4 %** ni tashkil etdi yoki **1021,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **116,0 %** ni tashkil etdi.






Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 129,9 mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 109,5 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 3232,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 127,5 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda 3,9 % va 96,1 % ni tashkil etdi.

IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)





**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari
2021- yil yanvar-avgust oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Namangan viloyati	3362,0	129,9	100	3232,1	100
Namangan sh.	989,2	10,5	8,1	940,9	29,1
tumanlar:					
Mingbuloq	105,6	6,6	5,1	97,1	3
Kosonsoy	295,6	11,6	9	287,2	8,9
Namangan	259,2	9,7	7,5	272,5	8,4
Norin	127,6	6,5	5	150,1	4,6
Pop	267,3	41,1	31,6	222,3	6,9
To'raqo'rg'on	185,4	7,4	5,7	179,2	5,5
Uychi	318,3	12,5	9,6	343,1	10,6
Uchqo'rg'on	204,9	5,5	4,2	188,3	5,8
Chortoq	226,8	5,4	4,1	201,7	6,3
Chust	202,7	6,5	5	189,6	5,9
Yangiqo'rg'on	179,4	6,6	5,1	160,1	5

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-avgust oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
Namangan viloyati	3362,0	107,1	100,0
Namangan sh.	989,2	100,5	29,4
tumanlar:			
Mingbuloq	105,6	129,5	3,2
Kosonsoy	295,6	95,9	8,8
Namangan	259,2	100,5	7,7
Norin	127,6	91,8	3,8
Pop	267,3	134,2	8
To'raqo'rg'on	185,4	108,1	5,5
Uychi	318,3	99,2	9,5
Uchqo'rg'on	204,9	112,2	6,1
Chortoq	226,8	135,8	6,7
Chust	202,7	129,0	6
Yangiqo'rg'on	179,4	106,0	5,3

2021- yil yanvar-avgust oylarida boshqa hududlarga nisbatan eng katta hajm Namangan shahar (989,2 mlrd. so'm) Uychi (318,3 mlrd.so'm), Kosonsoy (295,6 mlrd. so'm), Pop (267,3 mlrd. so'm), Namangan (259,2 mlrd. so'm), Chortoq (226,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)



Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi